

VERBAL MULOQOT VOSITALARI RIVOJLANMAGAN BOLALARNI LOGOPEDIK TEKSHIRISH USULLARI

Latibjonova Ziyoda Nazirjon qizi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universtiteti
“Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti”, Logopediya yo’nalishi 1-bosqich
magistranti
+998938472040

latibjonovaziyoda@gmail.com

Abstract: Ma’lumki inson muloqotda shakllanadi, rivojlanadi va shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi va individ o’zini hayotga joriy etadi. Ruhiy jihatdan rivojlangan odamlar bilan muloqotda bo’lish orqali, ilm olishga bo’lgan keng imkoniyatlar evaziga inson o’zining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallab borib, shaxsga aylanadi. Nutqning yo’qligi bolaning mukammal rivojlanishi va atrofdagilar bilan muloqot qilishini keskin cheklaydi. Bu esa o’z navbatida ongning asta sekin rivojlanishdan ortda qolishiga olib kelishi mumkin.

Tayanch so’zlar: muloqot, verbal muloqot, muloqot vositalari, paralingvistik vositalar, imo-ishoralar, logopedik tekshiruv.

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojdir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf bilan: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzorlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatishimiz mumkin. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar esa bir-birlari bilan o’zaro ta’sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzorlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta’riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o’rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo’lgan axborot almashinuvida ularning o’zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o’rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o’zaro ta’sirning yagona yo’lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo’lgan aloqalarni o’rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to’liq va aniq ta’rifidir.

Verbal muloqot faqat insonga xos bo’lib, zarur shart sifatida tilni o’zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o’zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o’zaro ta’sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo’ladi. Verbal (nutq) muloqot tarkibiga: so’zlar, iboralar ma’nosi va mohiyati kiradi.

Ota-onalar bilan olib borilgan dastlabki suhbatdan, ko’pincha bola og’zaki aloqa shakllarini qanday ishlatishni bilmasligi va kattalarning savoliga yuz ifodalari, imo-ishoralar, harakatlar, alohida tovushlar yoki "noaniq" so’zlar bilan javob berishi aniqlanadi. Bunday holda, tekshiruvchi bir qator murakkab uslubiy muammolarga duch keladi.

Birinchiidan, muloqot qilish uchun qulay bo’lgan tekshirish jarayonida bolaning emotsional ijobiy munosabatini shakllantirish va qo’llab-quvvatlash muhim ahamiyatga egadir. Bola gapiradigan tilning leksik vositalarini aniqlash jarayonini o’yin shaklida amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Bu qo’g’irchoq yoki o’yinchoq hayvonlarining harakatlarini namoyishi bo’lishi mumkin. Shu bilan birga, siz o’yinchoqni birgalikda ko’rib chiqishingiz va u bilan harakatlar qilishingiz mumkin (“Mana, Sobir, bu it, it yugurayapti. It to’xtadi va vovilladi –

vov, vov!"). Logoped bolaga o'yinchoq beradi va uni nomlashni so'raydi. Shu bilan birga, logoped bolani o'yinchoq bilan muayyan harakatlarni bajarishga va nomlashga undaydi.

Agrammatizm deganda so'zlarni va jummalarni grammatik jihatdan noto'g'ri tuzish, shuningdek grammatik shakllarning ma'nosini yetarli darajada anglamaslik tushuniladi. Bunday holda, bola faqat yuz ifodalari, imo-ishoralar, harakatlar (ya'ni paralingvistik vositalar) dan foydalanadimi yoki alohida tovush kombinatsiyalarini va "noaniq" so'zlarini ishlatishiga e'tibor berish kerak. Agar bola boshlang'ich nutq vositalaridan foydalanishi aniqlanadigan bo'lsa, qo'shimcha tekshirish maqsadida ular individual o'yinchoqlarni, ular bilan bo'lgan harakatlarni ko'rsatish uslubini qo'llaydilar va shu bilan birga boladan ushbu predmetlarni nomlash so'raladi. Bolaning e'tiborini va tekshiruv uchun zarur bo'lgan materialga qiziqishini saqlab qolish uchun avval tavsiflab berilgan o'yinchoqlarni birgalikda o'ynash usulidan foydalaniladi ("Bu mushuk. Bu esa Xo'roz. Mana, xo'rozning tumshug'i, mana bu nima?") "Sexrli qopcha" o'yinidan xam foydalansa bo'ladi.

Tekshiruvchi va bola o'rtasida ijobiy hissiy aloqa o'rnatilgandan so'ng, o'yinchoqlar bilan bir qatorda, ob'ektlar va harakatlar aks ettirilgan yorqin rangli rasmlar ham tekshiruv materialiga aylanishi kerak. Birinchidan, bitta rasm taqdim etiladi va bolaning diqqati o'sha rasmga qaratiladi (agar kerak bo'lsa, tekshiruvchi qo'li bilan bolaning diqqatini rasmga qaratadi).

Tekshiruv davomida quyidagilarni qayd etish muhimdir:

bola rasmdagi o'yinchoq yoki narsaning nomini va u bilan birga bo'lgan harakatni nomlashi. Agar nomlagan bo'lsa, u so'zning o'rniga alohida tovushlarni aytadi (poezd – u-u-u); yoki individual ovoz kombinatsiyasini (poezd - pu); yoki "noaniq" so'zlarni (suv - buv, olma - opo); yoki tovushga taqlid qilishiga (sigir - mu) e'tibor beriladi. Ularning umumiy so'zlar bilan birga qo'llanilishi qayd etiladi;

bola tovushlar va tovush yig'indilariga taqlid qila oladimi, logoped aytgan bitta bo'g'in, ikkita bo'g'in yoki butun so'zni ayta olishi;

bola tadqiqotchining talabiga javoban o'zining ovoqli vositalaridan foydalanadimi yoki uni o'z tashabbusi bilan bajaradimi.

Shuningdek, ob'yektni, harakatlarni aniqlashda bola tashqi vaziyatga tayanish holati yoki u foydalanadigan tovush majmualari barqaror xarakterga ega ekanligiga ham e'tibor qaratilishi lozim. Nomlash uchun predmet turli xil vaziyatlarda bolaga bir marta emas, balki bir necha marta taqdim etilishi kerak. Taqdim etilgan buyumlar bir xil nomga ega bo'lishi va ayni paytda tashqi ko'rinishi jihatidan farq qilishi maqsadga muvofiq: o'lcham, rang, material (masalan, kiyim-kechak bilan ajralib turadigan katta hamda kichik qo'g'irchoq).

Bola so'zning ma'nosini qanchalik yaxshi o'zlashtirganligini bilish uchun, u bir xil ob'ektni turli xil so'zlar bilan, bir xil so'z turli xil ob'ektlarni (masalan, mashina, trolleybus, tramvay va boshqa joyga borish istagi – bibi so'zi bilan aytilsa) anglatishini, yoki alohida predmetlar uchun alohida tovush komplekslari qo'llanilishini (poezd-pu, moshina-bibi) hisobga olish zarur.

Odatiy aloqa vositalaridan foydalanmaydigan bolalarni tekshirish natijalarini tahlil qilganda, nutqida nuqson birlamchi yoki ikkilamchi ekanligini aniqlash talab etiladi. Bolaning turli xil faoliyatdagi faolligini va nutq faoliyati bilan aloqasini belgilash ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bola qanday hayot sharoitida rivojlanganligini va uning nutqiga kattalarning ta'limiy ta'siri qanday ekanligini aniqlash kerak.

Ushbu usul yordamida olingan tadqiqot natijalari nafaqat tadqiqotni o'tkazish vaqtida til vositalarining hozirgi rivojlanish darajasini aniqlabgina qolmay, balki nutqni yanada shakllantirish imkoniyatlarini ham taxmin qilishga yordam beradi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagilar inobatga olinadi:

bola foydalanadigan tovush komplekslarining umumiy soni;

ularning ma'nosi qanchalik differensiallashganligi (tovush kompleksi yordamida muayyan ob'yektlar, harakatlar, fazilatlarning barqaror belgilanishi);
lug'atda umumiy ishlatiladigan so'zlarning mavjudligi va ularning bola tomonidan qo'llaydigan "noaniq" so'zlar va tovush komplekslari, shuningdek og'zaki bo'lmagan vositalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; so'zlashuvning bo'g'inli tuzilishini, muloqotda bola tomonidan qo'llaydigan keng tarqalgan va "noaniq" so'zlarni rivojlanganlik darajasi;
taqlid yordamida alohida bo'g'in va so'zlarni qaytara olishi;
muloqot jarayonida bolaning faolligi va tashabbuskorligi;
nutqni tushunish xususiyatlari va darajasi: bola unga tanish bo'lgan odatiy holatlarda iltimos va talablarga, ongli ravishda javob berishi.
Yuqoridagi tekshirish natijalarini tahlil qilib, shunga ko'ra logopedik-korreksion ish tashkil qilinadi. To'g'ri tashkil qilingan tekshiruv korreksion jarayonni samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Mo'minova, M.Ayupova. Logopediya. Toshkent-1993
2. L.R.Mo'minova, N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya. "O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI". Toshkent-2013.
3. M.Ayupova. Logopediya. "O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI". T-2007
4. L.S.Volkova. Logopediya. M.: Vlados. 2003